



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG'I

2024 - yil «25» mart 86 -son

Toshkent shahri

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyatini
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2011–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF–618I-son Farmoni, 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Pl–37-son Farmoni va 2018-yil 4-iyuldagi "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ–3837-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizam **1-ildovaga muvofiq**;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish bo'yicha ishchi guruh tarkibi **2-ildovaga muvofiq**;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi **3-ildovaga muvofiq**;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini reyting baholash bo'yicha komissiya tarkibi **4-ildovaga muvofiq** tasdiqlansin.

2. **Jamoatchilik kengashi faoliyatini reyting baholash bo'yicha komissiyasi** (K.Karimov)ga:

har yili iyun va dekabr oylarining 10-sanasiga qadar jamoatchilik kengashining faoliyatini reyting baholab borish;

komissiya tomonidan jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini baholash reytingi bo'yicha yakuniy natijalarini asoslantiruvchi hujjatlari bilan birgalikda baholash ishlari o'tkazilayotgan o'yning 25-sanasiga qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziriga hamda jamoatchilikka taqdim etib borish;

komissiya bayonlari bilan barcha mas'ul xodimlarni (komissiya a'zolari) tanishtirib borish vazifalari yuklansin.

3. Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish bo'yicha ishchi guruhi **bir hafta muddatda** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashiga a'zolikka nomzodlar ro'yxatini belgilangan tartibda vazirga tasdiqlash uchun kiritilishini ta'minlasin.

4. Vazirlik **Axborot xizmati** (N.Abdugunduzova) Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblansin hamda uning faoliyatini tashkiliy-uslubiy va axborot jihatidan ta'minlab bersin.

5. **Axborot-tahlil va ijro intizumi bo'limi** (A.Yakubov) Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarini tashkillashtirishda, o'ning vazirlik bilan ishlashini tashkil etishda Axborot xizmatiga ko'maklashsin.

6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi departamenti, boshqarma va bo'lim hamda tizim tashkilotlari boshliqlari o'z yo'nalishlari bo'yicha Jamoatchilik kengashi bilan hamkorlik uchun shaxsan mas'ul ekanliklari belgilansin.

7. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 25-apreldagi 106-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. **Devonxona** (Z.Aripova) ushbu buyruq bilan vazirlikning barcha xodimlarini tanishtirsin.

9. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiramun.

Vazir



K.Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
JAMOATCHILIK KENGASHI TO'G'RISIDAGI
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) huzuridagi Jamoatchilik kengashining (keyingi o'rinlarda – Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Jamoatchilik kengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.
3. Jamoatchilik kengashi Vazirlik huzurida tashkil etiladi.
4. Jamoatchilik kengashi Vazir buyrug'i bilan tashkil etiladi.
5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.
6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farrnroyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farrnroyishlariga, Vazir buyruqlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi. Jamoatchilik kengashi a'zolarining o'z maqsad va vazifalari doirasidan chetga chiqib, Vazirlik bilan kelishilmagan holda bildirgan fikr-mulohazalari hamda sodir etgan xatti-harakatlari Jamoatchilik kengashining nuqtayi nazarini anglatmaydi;
7. Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom va unga kiritiladigan o'zgartishlar hamda qo'shimchalar Vazir buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining maqsadi, asosiy vazifalari, funksiyalari,
huquqlari va majburiyatlari**

8. Jamoatchilik kengashining maqsadi O'zbekiston Respublikasida oliy va professional ta'lim, ilmi-fan, ta'lim, innovatsiyalar sohasida olib borilayotgan siyosat va choratadbirlarning samaradorligini oshirishga ko'maklashishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun Jamoatchilik kengashi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Oliy va professional ta'lim, ilmi-fan, ta'lim, innovatsiyalar sohaslarida Vazirlik va jamoatchilik o'rtasida samarali mulohotni yo'lga qo'yish;

Oliy va professional ta'lim, ilm-fan, ta'lim, innovatsiyalar bo'yicha davlat siyosati va chora-tadbirlarini takomillashtirish bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish;

fuqarolik jamiyati institutlari, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar, biznes hamjamiyati bilan hamkorlikda oliy va professional ta'lim, ilm-fan, ta'lim, innovatsiyalar rivojlanish siyosati, strategiyasi va chora-tadbirlari samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Jamoatchilik kengashlarining tartib-qoidalarini takomillashtirish yuzasidan ilg'or tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqish;

fuqarolik jamiyati bilan bog'liq loyihalarni monitoring qilish;

Vazirlik faoliyati to'g'risida jamoatchilik fikrini kuzatib borish, tahlil qilish va ular orasida ijobiy fikr shakllantirishda Vazirlikka yaqindan ko'mak berish;

Vazirlik faoliyatining shaffofligini monitoring qilish;

birgalikda muloqot qilish. Vazirlikning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun Vazirlikni fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'priklarni" rolini bajarish;

Ta'lim-fan jamoatchilik kengashi, uning huzurida tuzilgan ishchi guruhlar tomonidan o'rganilgan masalalar yuzasidan berilgan xulosalar asosida takliflar tayyorlash va ko'rib chiqish uchun Vazirlik rahbariyatiga kiritish;

Vazirlik faoliyatini jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

9. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

kun tartibidagi masalalar, hujjatlar loyihalari, oliy va professional ta'lim, ilm-fan, ta'lim, innovatsiyalar bo'yicha muayyan hudud, soha va tarmoqlarda amalga oshirilishi natijalari bo'yicha og'zaki yoki yozma ravishda o'zining ekspert fikrini bildirish hamda muhokama qilish;

jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallarni Jamoatchilik kengashi va Vazirlik rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdim etish;

Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq majlislar va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

Vazirga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Vazirlik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan Vazirlikning axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish, unga Jamoatchilik kengashi xulosasini berish;

Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatiga doir masalalar, bu borada qilinayotgan ishlar hamda majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi a'zolari o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan vaqtinchalik ishchi va ekspertlar guruhlarini tuzish mumkin.

10. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

Vazirlik xodimlarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

Vazirlik xodimlari faoliyat ko'rsatishi uchun to'siqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart;

Jamoatchilik kengashi nomidan intervyu berish, uchrashuv, o'rganish va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etish faqatgina kengash raisini xabarlar qilgan holda amalga oshirish;

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi talablarni bajarish Jamoatchilik kengashi tarkibiga kiruvchi barcha a'zolar uchun majburiydir.

3-bob. Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish va a'zolarining huquq va majburiyatlari

11. Jamoatchilik kengashi a'zolariga, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga ega, ta'lim-fan, innovatsiyalar sohasida alohida bilim, ko'nikmalarga ega bo'lgan, shuningdek, sohani rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflarni bera oladigan, sudlanmagan, zarur kasbiy fazilatlariga bo'lgan, jamiyatda alohida e'tiborga ega bo'lgan, sohada namunali xizmat ko'rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohaslarida katta amaliy tajribaga ega obro'-e'tiborli fuqarolar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari orasidan tanlov asosida qabul qilinadi.

Tanlov Vazirlik tomonidan belgilangan muddatlar, talablar va shakllarga muvofiq o'tkaziladi.

Jamoatchilik kengashi a'zolarining soni 15 nafardan 25 nafargacha etib belgilanishi mumkin.

Bunda, jamoatchilik kengashi tarkibining kamida 20 foizini ayollar, 50 foizini nodavlat notijorat tashkiloti vakillari bo'lishi lozim.

12. Jamoatchilik kengashining tarkibi Vazir buyrug'i bilan har 2 (ikki) yilda tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashining vakolat muddati yakunlanganidan so'ng o'z faoliyatini tugatadi va Vazirlik tomonidan belgilangan tartibda Kengashning yangi tarkibi shakllantiriladi.

13. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinbosari va a'zolari kiradi.

14. Jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rinbosari Vazir tavsiyasiga asosan, jamoatchilik kengashining a'zolari orasidan saylanadi.

Saylangan rais, rais o'rinbosari, vakolat muddati Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan belgilanadi.

Vazirlikning Jamoatchilik kengashi ishini tashkil etishga mas'ul xodimi bir vaqtning o'zida kengash kotibi vazifasini ham bajaradi.

15. Quyidagi holatlarda Jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rinbosari va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

kengash tarkibidan chiqish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganida;

huquqbuzarlik, shuningdek jamiyatta o'rnatilgan axloq qoidalari hamda umumiy qoidalarga e'tibor berilgan normalarni qo'pol ravishda buzuvchi va kengash a'zosi nomiga dog' tushiruvchi hamda Jamoatchilik kengashi obro'siga putur yetkazuvchi harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etganda;

Kengash yoki Vazirlik nomidan shaxsiy yoki boshqa manfaatlari yo'lida foydalanganda;

Kengashi a'zolarining ko'pchilik fikri bilan ovozga qo'yilganda va oddiy ko'pchilik ovozi bilan ma'qullanganda;

Nizomda nazarda tutilgan o'z vazifalarini uzeli sabablarsiz muntazam ravishda, bajarmaganda, shu jumladan Jamoatchilik kengashining majlislarida ishtirok etmaganda;

vafot etganda, shuningdek sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda;

mazkur nizomning 11-bandida belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda.

16. Jamoatchilik kengashining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va unga kiritilgan o'zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 (besh) kun ichida Vazirlik rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

17. Jamoatchilik kengashi raisi o'z vakolatlari doirasida:

Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etadi;

Majlislarga raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi nomidan hujjatlarni imzolaydi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;

Vazirlik majlislarida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etadi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining raisi bo'linagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o'rinbosari bajaradi.

19. Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari:

raisi yo'qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi ishini samarali tashkil etish bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Jamoatchilik kengashining kotibi:

Jamoatchilik kengashi faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Jamoatchilik kengashining naybatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Vazirlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

kun tartibiga muvofiq Jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini rais bilan kelishadi;

Jamoatchilik kengashi a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijo etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini kengash majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning a'zolar hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

Vazirlikning rasmiy veb-saytida Jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari)ni tayyorlaydi va har chorakda Vazirlikka taqdim etib beradi;

Jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Vazirlik rasmiy veb-saytida e'lon qilish uchun vazirlikka taqdim etadi;

Ovoz berish natijalarini inobatga olgan holda ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha Jamoatchilik kengashi tavsiyasi loyihasini tayyorlaydi va imzolash uchun Jamoatchilik kengashi raisiga kiritadi;

Jamoatchilik kengashi kotibi Jamoatchilik kengashi tarkibiga kirmaydi.

21. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining a'zolari:

o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

Jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihalarini tayyorlaydi, ularni Jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalarini bajarilishini ta'minlaydi;

Vazirlik faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qamashadi;

Vazirlik xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni Jamoatchilik kengashiga kiritadi;

Jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tabiiy materiallar tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Kengash a'zolari ishdagi faolligi, tashabbuskorligi, Vazirlik nufuzini oshirishga doir sa'y-harakatlari hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda alohida ko'rsatgan xizmatlari uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirilishi mumkin:

Rag'batlantirish Vazirlik tashakkurnomasi, faxriy yorlig'i, esdalik sovg'asi bilan taqdirlash, davlat mukofotiga nomzodini tavsiya etish, madaniy ko'ngilochar tomoshalarga taklifnoma hamda biletlar taqdim etish shaklida Vazirlikning budjetdan tashqari jamg'arma mablag'alari hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan berilishi mumkin.

Kengash a'zolari Vazir qaroriga asosan rag'batlantiriladi va tashkilot veb-saytida ochiq e'lon qilinadi.

4-bob. Jamoatchilik kengashi yig'ilishini tashkil etish va o'tkazish tartibi

23. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi Kengash raisi u yo'qligida esa uning o'rinbosari tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida to'rt marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining navbatdan tashqari majlisi Jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida chaqirilishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashining majlisi o'tkaziladigan vaqt, sana, joy va kun tartibi a'zolar e'tiboriga majlis bo'lishidan kamida uch kun oldin yetkaziladi.

Majlis bo'lishi haqidagi xabar Kengash a'zolariga ijtimoiy tarmoqdagi sahifasiga xabarnoma jo'natish, uyali aloqa vositasiga qo'ng'iroq qilish, ish joyiga rasmiy xabarnoma jo'natish, vazirlik rasmiy veb-saytida e'lon berish va boshqa aloqa vositalari orqali ma'lum qilinishi mumkin.

25. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida 50 foizdan ortig'i (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

26. Jamoatchilik kengashi majlisida ishtirok etish imkon bo'lmagan holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

27. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari, ommaviy axborot vositalari taklif etilishi mumkin.

28. Jamoatchilik kengashi majlislari onlayn, oflayn yoki gibridd formatda ham o'tkazilishi mumkin.

29. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan Jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

Shuningdek, Vazirlik va kengash a'zolarining taklifiga ko'ra, Jamoatchilik kengash majlislarida alohida muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalar kun tartibiga kiritilishi mumkin.

30. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

31. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

32. Jamoatchilik kengashi a'zolari majlis yakuni bo'yicha vazirlik tomonidan ko'rib chiqilishi va qarorlar qabul qilinishi majburiy bo'lgan tavsiyalar qabul qiladi.

33. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Vazirlikka, jamoatchilik kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

34. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li rasmiylashtiriladi.

Vazirlik Jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, kengash qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

35. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida Jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, Jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

36. Quyidagi holatlar Jamoatchilik kengashi faoliyati tugatilishiga sabab bo'ladi:

Nizomda belgilangan vakolat muddati yakunlanganidan so'ng;

O'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni yetarli darajada bajarmaganda;

Vazirlik faoliyati va ishtirok ob'ektlariga putur yetkazilishga sabab bo'luvchi harakat yoki harakatsizlikni sodir etganda;

Kengash a'zolari umumiy sonining 50 foizdan ortiq qismini a'zolikni tark etganda;

Jamoatchilik kengashi majlisida ishtirok etgan kengash a'zolarining kengash faoliyatini tugatish to'g'risidagi ko'pchilik ovozi bilan ma'qullangan qarori belgilangan taqdirda tasdiqlanganda;

Qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa shu kabi vazirlik faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi noqonuniy harakat yoki harakatsizliklar sodir etilganda.

37. Vazirning buyrug'i Jamoatchilik kengashi faoliyatining tugatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

38. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Vazirlik tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

39. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning Nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi Vazir tomonidan nazorat qilinadi.

40. Jamoatchilik kengashining qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.



**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi
tarkibini shakllantirish bo'yicha ishchi guruh**

TARKIBI

№	Ismi va familiyasi	Ish joyi va lavozimi
1.	Komiljon Karimov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining birinchi o'rinboshi - <i>Ishchi guruh raisi</i>
2.	Aziz Meliboyev	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri kotibiyati boshlig'i - <i>Ishchi guruh a'zosi</i>
3.	Nazokat Abduqunduzova	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi - <i>Ishchi guruh a'zosi</i>
4.	Abduvati Xoligov	Ta'lim muassasalar faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti boshlig'i - <i>Ishchi guruh a'zosi</i>
5.	Ortkarjon Alijonov	Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti boshlig'i - <i>Ishchi guruh a'zosi</i>
6.	Sherzod Nu'matov	Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i - <i>Ishchi guruh a'zosi</i>
7.	Maqsudjon Xamrayev	Moliy-iqtisodiyot va investitsiyalar boshqarmasi boshlig'i - <i>Ishchi guruh a'zosi</i>
8.	Nodir Kasimov	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig'i - <i>Ishchi guruh a'zosi</i>
9.	Uldir Buzorov	Axborot xizmatlari bo'lini bosh mutaxassisi - <i>Ishchi guruh kotibi</i>



**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyati
samaradorligini reyting baholash
METODIKASI**

Mazkur **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi** huzuridagi jamoatchilik kengashi (keying o'rinlarda – jamoatchilik kengashi deb yuritiladi) faoliyati samaradorligini reyting baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi (keying o'rinlarda – Metodika deb yuritiladi) jamoatchilik kengashi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o'zini o'zi baholash usuli orqali aniqlash va erishilgan samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha keng jamoatchilikning xolisona bahosini olishga xizmat qiladi.

2. Jamoatchilik kengashining faoliyati yilda ikki marotaba mazkur Metodikada belgilangan samaradorlikni reyting baholashning asosiy ko'rsatkichlari asosida baholab boriladi.

3. Jamoatchilik kengashining samaradorlik bo'yicha reytingini shakllantirish ular faoliyatining ayrim jihatlarini (miqdor va sifat ko'rsatkichlarini) ma'ayan mezonlarga ko'ra har tomonlama tahlil qilish va baholash oqati amalga oshiriladi.

4. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ochiqlik va shaffoflik;
- qulaylik (baholash onlayn va offlayn shaklda ham tashkil etiladi);
- kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- keng qamrovlilik (jamiyatning barcha toifadagi a'zolari ishtiroki);
- hisobdorlik.

2-bob. Reyting baholashning maqsad va vazifalari

5. Metodika quyidagi maqsadlarni qamrab oladi:
jamoatchilik kengashi faoliyatini takomillashtirish, unga faol va tizimli tus berish;

– jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini o'z-o'zini baholash vositasi yordamida amalga oshirish;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning oshkoraligi va ochiqqligini ta'minlash, jamoatchilik kengashlari faoliyatiga fuqarolar tomonidan xolis baho berish imkoniyatini yaratish;

– jamoatchilik nazorati sub'ektlari, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, umumiy axborot vositalari o'rtasidagi axborot hamkorligini takomillashtirish.

6. Quyidagilar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari yuzasidan jamoatchilik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha jamoatchilik kengashlarining rolini oshirish;

faoliyatning ayrim sohalarida davlat siyosatini ishlab chiqishda tarmoqlararo va idoralararo o'zaro hamkorlikni kuchaytirish;

jamoatchilik kengashi faoliyatining samaradorligini baholashni o'z-o'zini nazorat qilish orqali amalga oshirish;

jamoatchilik kengashi faoliyatiga keng jamoatchilik va umumiy axborot vositalarining e'tiborini jalb qilish.

3-hob. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reytingini shakllantirish ishlarini tashkil etish

7. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash ishlarini tashkil etish har yili iyun va dekabr oylarining 10-sanasiga qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida jamoatchilik kengashi faoliyatini reyting baholash bo'yicha komissiya (keying o'rinlarda – komissiya) tuzish orqali amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga kelishuv asosida vakolath organ vakillari, nodavlat notijorat tashkilotlari haunda umumiy-axborot vakillari kiritilishi mumkin.

Bunda vakolatli organ vakillari komissiya tarkibining achdan bir qismini tashkil etishi haunda komissiya a'zolari ro'yxati mazkur tashkilotning rasmiy veb-saytida oldindan e'lon qilinishi lozim.

8. Komissiya tomonidan jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini baholash reytingi bo'yicha yakuniy natijalar asoslantiruvchi hujjatlari bilan birgalikda baholash ishlari o'tkazilayotgan oyniing 25-sanasiga qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri haunda jamoatchilikka taqdim etilishi lozim.

Bunda ma'lumotlarning komissiyaga belgilangan muddatdan kechikmay, sifatli va to'g'ri taqdim etilishi uchun kengash a'zolari hamda vakolatli organ rahbari mas'ul hisoblanadi.

9. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reytingini aniqlashga oid ma'lumotlar va ularning asoslantiruvchi hujjatlari komissiya tomonidan qo'shimcha o'rganilishi mumkin.

Asoslantiruvchi hujjatlari mavjud bo'lmagan, shuningdek haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yoki asossiz ma'lumotlar reytingni hisoblashda inobatga olinmaydi.

4-bob. Metodikani qo'llash shartlari

10. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash mezonlari qonunchilik hujjatlari bilan jamoatchilik kengashlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga asoslanadi.

11. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reyting bahosi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

jamoatchilik kengashlarining faoliyati to'g'risidagi hisobotlar;

jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarning bergan bahosi, taklif va mulohazalari.

12. Jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini reyting baholash bo'yicha miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi ushbu Metodika ilovasida belgilangan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

13. Komissiya tomonidan jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini reyting baholash bo'yicha olingan yakuniy natijalar jamoatchilik kengashiga ma'lumotnoma ko'rinishida, jamoatchilik kengashini tashkil etgan vakolatli organ rahbariga esa tahliliy ma'lumotnoma shaklida taqdim etiladi.

14. Jamoatchilik kengashlari tomonidan jamoatchilik kengashlari faoliyati samaradorligini reyting baholash natijalari har olti oyda vakolatli organning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda reyting natijalari haqida jamoatchilikka ma'lumot beriladi.

5-bob. Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi reyting ballarini hisoblash tartibi

16. Reytingni hisoblash Metodika ilovasida keltirilgan baholash mezonlari asosida matematik metodlar orqali har bir ko'rsatkich bo'yicha alohida hisoblanadi.

17. Komissiya a'zolari reyting baholash natijalari bo'yicha xulosa berganda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan quyidagi umumiy talablarni inobatga olishi zarur:

a) Jamoatchilik kengashi faoliyatidan aholining manfaatdorligi, fuqarolar bilan jamoatchilik kengashi o'rtasida o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yilganligi.

Bunda komissiya a'zolari tomonidan jamoatchilik kengashining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro aloqalari, axborot resurslari, rasmiy veb saytlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilik kengashi faoliyatiga oid chop etilgan muayyan mavzulardagi materiallar, ularning ijtimoiy tarmoqlar va axborot platformalarida foydalanish uchun joylashtirilganlik holatlarini monitoring qilish orqali xidosa qilinadi.

b) Jamoatchilik kengashi tomonidan jamoatchilik muhokamasi paytida berilgan takliflarning rasmiy qarorlarda yoki qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda inobatga olinganligi.

Ushbu ko'rsatkich jamoatchilik kengashi tomonidan bildirilgan izoh va takliflarga mos keladigan o'zgarishlarni qarorlarning yakuniy versiyasidagi (rasmiy hujjatlar) taqqoslash orqali aniqlanadi;

v) jamoatchilik kengashini tashkil etgan vakolatli organ faoliyati jamoatchilik kengashlar tomonidan ko'tarilgan masulalar orqali yaxshilanganligi holati (jamoatchilik nazorati yoki jamoatchilik ekspertizasi orqali)

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha vakolatli organ faoliyati va qomunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish bo'yicha jamoatchilik kengashlari tomonidan berilgan tashabbuslar ko'rib chiqiladi.

18. Metodika ilovasida keltirilgan baholash mezonlari asosida har bir ko'rsatkich yuzasidan to'plangan umumiy ballardan quyidagicha reyting shakllantiriladi:

- 60 ball va undan yuqori bo'lganda - a'lo;
- 40 balldan 59 ballgacha bo'lganda - yaxshi;
- 21 balldan 39 ballgacha bo'lganda - qoniqarli;
- 20 dan kam ball bo'lganda - qoniqarsiz.


19. Reyting baholash natijalari Komissiya yig'ilishida bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bunda komissiya majlisi bayonnomasini rasmiylashtirish komissiya kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

20. Komissiya yig'ilishi bayonnomasi shu vaqtning o'zida komissiyaning har bir a'zosi tomonidan imzolalanadi hamda tasdiqlash uchun komissiya raisiga taqdim etiladi.

21. Komissiya kotibi komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan bayonnomasi bilan barcha mas'ul xodimlarni shu kunning o'zida tanishtirishi shart.

6-bob. Yakuniy qoidalar

22. Reyting natijalariga oid ma'lumotlar jamoatchilik kengashi ishchi organida uch yil davomida saqlanadi.



TARKIBI

No	Ismi va familiyasi	Ish joyi va lavozimi
1.	Komiljon Karimov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari – <i>Komissiya raisi</i>
2.	Aziz Meliboyev	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri kotibiyati boshlig'i – <i>Komissiya a'zosi</i>
3.	Nazokat Abduqanduzova	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining asborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi – <i>Komissiya a'zosi</i>
4.	Abduvali Xolipov	Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti boshlig'i – <i>Komissiya a'zosi</i>
5.	Ortkirjon Alijonov	Professional ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti boshlig'i – <i>Komissiya a'zosi</i>
6.	Nigera Adizova	Asborot xizmatlari bo'limi boshlig'i o'rinbosari – <i>Komissiya a'zosi</i>
7.	Yunus Istamov	Asborot xizmatlari bo'limi bosh mutavassisi – <i>Komissiya kоти</i>